

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA AXLOQIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI HAQIDA QARASHLARI

Rahmatullayeva Zamira Olimjonovna
*NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya
kafedrası katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirishda trabiachi va psixolog hamkorligining o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Psixolog, bola, psixologik qonuniyatlar, tarbiachi, individual xususiyatlar, idrok, tarbya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение сотрудничества воспитателя и психолога в формировании личности дошкольника.*

Ключевые слова: *психолог, ребенок, психологические закономерности, воспитатель, индивидуальные особенности, восприятие, воспитание.*

Annotation: *This article reflects on the role and importance of traban and psychologist cooperation in the formation of the personality of a preschool child.*

Keywords: *psychologist, child, Psychological Laws, educator, individual characteristics, perception, tarbya.*

Kelajak avlod haqida qayg‘urish sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish zamondan-zamonga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizdir. Har bir ota-ona o‘z farzandining baxtu-saodati, fazlu-kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi.

Insoniyatning ko‘payishi tabiat qonuni bo‘lgani kabi, bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham bizning jamiyatimiz qonunidir. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o‘z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o‘z ta‘sirini o‘tkazib turadi. Ya‘ni shaxsni tarkib toptirish oilaning ilk psixologik muhitidan boshlanib, bolaning ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlariga asos soladi, teran shakllantiradi, umumiy va hissiy rivojlanishini ta‘minlaydi hamda uning mavjud imkoniyatlarini va aqliy tafakkurini o‘stiradi. Shuningdek, bolada xarakter, iroda, urf-odatlar, fe‘l-atvor, hulq, tevarak atrofga munosabat, e‘tiqod, qarashlar, qobiliyat, qiziqishlar oilada vujudga keladi.

Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki bola tarbiyasi eng murakkab faoliyatlardan biri hisoblanadi. Agar bolani to‘g‘ri tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bolaning oiladagi tarbiyasi bilan ta‘lim -tarbiya jarayonidagi munosabatlari orasida ko‘pgina tafovutlar kuzatiladi.

Chunki, ta‘lim muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilishidan qat‘iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog‘cha va maktablar ta‘lim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Shu bois ota-onaning xarakter xususiyati, xulq-atvori bola tarbiyasida hal qiluvchi omil bo‘lib, bola ularning har bir harakati, so‘zi va har bir qilmishidan ibrat oladi. Ota-onaning izchil

tarbiyachilik mehnati ularni yaxshi farzandlarning ota-onalari bo'lish sharafiga muyassar qiladi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib aytganidek “O'g'il-qizlarning fe'l-xulqi yaxshi yoki yomon bo'lsa, uning sababchisi otav a onadir”. Darhaqiqat ota-onalar va ularning shaxsiy ibрати namuna hisoblanib, ular bola hayotidagi ilk tarbiyachilardir.

O'zbek oilasida bolani axloqiy tarbiyasi haqida gapirganda, keyingi avlodlarga boy meros qoldirgan buyuk mutafakkirlarimizni eslash muhimdir. Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim -tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ularning qimmatli fikrlari hozirgi kunlarimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Jumladan, Ibn Sino oilada bolani tarbiyalash, ahvolidan qat'i nazar, ota-onaning asosiy burchi deb hisoblagan, o'z qusurlarini bartaraf qilgan kishigina boshqalarni tarbiyalashi mumkinligini ta'kidlagan. Ya'ni tarbiya bermoqchi bo'lgan kishining avvalo o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i zarur ekanligi ahamiyat qaratgan. Darhaqiqat bugungi kunda ayrim ota-onalarimiz axloqiy tarbiya haqida ko'plab pandu-nasihatlar qilishadiyu lekin o'zlari axloqiy tarbiyaga muhtoj hisoblanishadi. Masalan otalarimiz o'g'il-lariga ichma, chekma bu yomon odat deb aytishadiyu, lekin o'zlari yarim tunda mast ahvolda uyga kirib kelishadi, onalarimiz esa g'iybat qilish, yolg'on gapirish gunohligini farzandlariga uqtirishadiyu, lekin o'zlarida buni bartaraf etishmaydi. Balki shuning uchun ham farzandlariga berayotgan axloqiy tarbiyalari o'z samarasini bermayotgandir.

Yana Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida oilaviy tarbiyaning umumiy asoslarini bayon etishga harakat qilgan. “Agar oila tarbiya usullaridan to'g'ri foydalansa, - deb yozgan edi olim, - o'z hayotida baxtga erishadi”. Ibn Sino ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bola bilan, nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo'lish, unga nasihat qilishni ma'qul usul hisoblaydi. Ibn Sino tarbiyada otaning rolini ifodalashga katta ahamiyat bergan. “Ro'zg'orshunoslik” kitobida “Otaning bolalarga munosabati” degan bob bor. Unda olim jumladan: “Onalar o'z tabiatlariga ko'ra yumshoq ko'ngildirlar va o'zlarining erkalashlari bilan bolaning xarakterini buzadilar”, - deydi. Ibn Sinoning fikricha, oilada asosiy tarbiyachi ota bo'lishi, u maqsadga erishmoq uchun bolani ba'zan jazolashi, ba'zan rag'batlantirish, vaqti-vaqti bilan maqtashi, ba'zan tanbeh berish, vaqtida qo'rqitib qo'yish, hatto jismoniy jazolashi lozim.

Ibn Sino bolada axloqiy xislatlarni mehnat, jismoniy va aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni bolani haqiqiy inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Oilada bolaning axloqiy tarbiyasi to'g'risida Alisher Navoiyning ham ko'plab fikrlarini keltirishimiz mumkin. Navoiyning fikriga ko'ra, eng muhimi bolalarni sevisht, “Bolaga, degan edi ulug' shoir, - kichikligidan boshlab yoshini hisobga olgan holda axloqiy tarbiya bermoq zarur”. Navoiy axloqiy tarbiyani bolaning kichikligidan berilsa u bola hayotida chuqur iz qoldirishini ta'kidlab o'tgan edi.

Taniqli shoir va pedagog Abdulla Avloniy ham oilada bolalar tarbiyasi to'g'risida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib fikrlarni bayon qilgan. O'zining «Yashnagan o'lka va ahloq» degan kitobida, bolaning sog'lig'i va baxti avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining

tozaligiga, e’tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo’lishiga, uni g’ayriaxloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiga bog’liq. Bolani tarbiyalashni tug’ilgan kunidanoq boshlash zarurligi quyoshday ravshan va aniq, uning organizmini mustahkamlash, aqliy qobiliyatini donishmandlik nuri bilan yoritish, uni axloqiy kamol toptirish, xotirasini mashqlantirish kerak, -deb yozgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy esa ota-onalarning bolani tarbiyalashdagi rolini yuqori baholab, “avvalo ularning xulqi namunali, qusursiz bo’lmog’i, ular yuksak axloqiy sifatlarga ega bo’lishlari zarur”, - degan, farzandlarni tarbiyalash bilan shug’ullanmaydigan hamda o’zlarining nomunosib xulqlari bilan ularning axloqiy rivojlanishlariga salbiy ta’sir ko’rsatadigan ota-onalarni keskin tanqid qilgan edi. U o’z farzandlarini tarbiyalamay, ularni faqat moddiy ta’minlanishi to’g’risida g’amxo’rlik qiladigan ota-onalarga qattiq tanbeh berar edi. Bugungi kunda ham Hamza Hakimzoda Niyoziy aytganidek farzandlarini moddiy tomondan ta’minlashga katta e’tibor berib, axloqiy tarbiysiga e’tibor bermayotgan ota-onalar ko’plab topiladi. Hamza “O’z bolalarini yomon tarbiyalagan onaning jazosi” hikoyasida bolalarni yomon tarbiyalashning fojiaiy oqibatini tasvirlaydi. Unda o’g’lining o’g’irlik qilishidan ko’z-yumgan, aksincha, uni bu ishga rag’batlantirgan, o’g’li qo’lga tushib, osishga hukm qilingan onaning ayanchli ahvoli bayon qilingan. Hamza o’z hikoyasini “Agar farzand yomon bo’lsa, bunga ota-onalar sababchi”, - degan so’zlarni aytgan.

Hamzaning ta’kidlashicha, axloqiy poydevor oilada qo’yiladi va ota-onalar buning uchun javobgardir. “Agar, - deydi Hamza, - ota-onalar o’z farzandlarini ilk yoshidan boshlab yaxshi tarbiya qilganlarida edi – zabonlarimizni yolg’ondan, qo’llarimizni jinoyatdan tiygan, quloqlarimizni tuhmat va g’iybatdan asragan, ular bizni har qanday yomonlik va baxtsizlikdan saqlagan bo’lur edilar”. Darhaqiqat bolalarni axloqiy tarbiyalash – onaning burchi va otaning muqaddas majburiyatidir.

Atoqli ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat esa o’z davrida, bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog’lom jismu tan, aql va axloqdir. Farzandni jisman, aqlan va ahloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli aqli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur, deb aytgan va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya haqida batafsil to’xtalib, bunda oilaning ota-onaning o’rni benihoya muhim va beqiyos ekanligini ta’kidlagan. Abdurauf Fitratning farzand tarbiyasi to’g’risidagi fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham dolzarb bo’lib, ularning barcha ijobiy va ibratli tomonlarini hayotimizda qo’llashimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan allomalar fikrlaridan ko’rinib turibdiki bolada axloqiy tarbiya o’z-o’zidan shakllanib qolavermaydi. Ota-ona to’g’ri tarbiya olib borishga izlanish, o’qish va tajriba orttirish orqali erishadi. Chunki boladagi barcha xislatlar axloq bilan kamolga yetadi. Shu bois tarbiya yaxshi axloq bilan bezatilmog’i kerak. Axloqiy tarbiyaga esa oilada asos solinadi. Oila tarbiyaning asosiy poydevoridir. Bolaning kim bo’lib yetishishi asosan, oiladagi muhitga – tarbiyaviy ta’siriga bog’liq. Bu to’g’rida atoqli pedagog A.S.Makarenko alohida to’xtalib, agar biz farzandlarimizga yaxshi tarbiya bermasak, bu kelajakdagi achchiq ko’z yoshimiz, noqobil farzand tufayli qon-qon yig’lab yutadigan g’amlarimiz alamlarimiz, deb ota-onalarni ogohlantirgan edi. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy esa “Tarbiya biz uchun yo hayo-yomamot, yo najot yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” deb bejis aytmagan.

Demak oilalarning ravnaq topishida tarbiya benihoyat katta o‘rin tutadi. Ota-onaning o‘z farzandi tarbiyasiga e‘tibor bermasligi, uni o‘z holiga tashlab qo‘yishi, bu sohadagi vazifalarga bir tamonlama qarash ota-onaning burchini, jamiyat oldidagi ma’suliyatini his qilmaslikdir. Har bir ota-ona o‘z farzandi tarbiyasi bilan asosli ravishda shug‘ullanishi, buning uchun esa ta’lim -tarbiya ishining o‘ziga xos tomonlarini, qonuniyatlarini, bolaning pedagogik-psixologik va yosh xususiyatlarini, jismoniy va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishlari, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muvoffaqiyatlariga erishishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авлоний А. “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992 й. 11-14 б.
2. Axatova D. “Abdurauf Fitratning oilaviy munosabatlarga oid qarashlari” “Xalq ta’limi” jurnali Toshkent, 2006 y. 4-son, 62-65 b.
3. Иномова О. “Фарзанд-нихол, ота-она боғбон” Тошкент, “Ўқитувчи” 1994 й
4. Каримова В. Ижтимоий психология Т.2007
5. Зинченко В. П. Психологическая педагогика. Материалы к курсу лекций. Часть 1. Живое знание (2-е испр. и доп. изд.). Самара: «Самарский дом печати», 1998
6. Olimjonovna, R. Z., & Xusnatilla o‘g‘li, N. Q. (2025). O ‘SMIRLIK DAVRIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA BOILOGIK VA IJTIMOIIY OMILLARNING TA’SIRI. Научный Импульс, 3(33), 30-33.
7. Olimjonovna, R. Z. (2024). EMOTSIONAL INTELLEKT BOLAJAK MUTAXASSISLARNING MUHIM XUSUSIYATI SIFATIDA. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 5(41), 452-458.
8. Rahmatullayeva, Z. (2024). FALSAFIY TA’LIMOT NOMOYONDALARI QARASHLARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT MUAMMOSINING ORGANILGANLIGI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
9. Рахматуллаева, З. (2022). Профессиональное становление и педагогическое мастерство учителя. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 37-38.
10. Rustamova, G. X. Q. (2025). Noto ‘liq oilaning jamiyatdagi o ‘rni va psixologik ta’siri. Science and Education, 6(4), 265-269.
11. Rustamova, G. X. Q. (2025). Noto ‘liq oilaning jamiyatdagi o ‘rni va psixologik ta’siri. Science and Education, 6(4), 265-269.
12. Рафикова, Р. А. (2024). Особенности внедрения инклюзивного образования в дошкольных организациях Республики Узбекистан. Science and Education, 5(11), 276-280.
13. Goipova, N. B., & Erkinova, M. M. Q. (2025). Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko ‘rishning ahamiyati. Science and Education, 6(6), 741-744.
14. Goipova, N. B. Q., & Uraimjonova, Z. I. Q. (2025). Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Science and Education, 6(5), 387-392.